

QOVUN O'SIMLIGINING RIVOJLANISHI VA TASHQI MUXIT OMILLARIGA MUNOSABATI

I.Ismayilova, dotsent, Urganch davlat universiteti, Urganch

M.B.Jumaniyazova, magistrant, Urganch davlat universiteti, Urganch

Аннотация. Ушбу мақолада qovun o'simligining rivojlanishi va tashqi muxit omillariga munosabati to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Kalit so'zlar: qovun, harorat, maysa, rivojlanish, gul, chidamli, tuproq, qurg'oqchilik, namlik, entomofil.

Аннотация. В этой статье представлена информация о развитии растения дыни и его влиянии на факторы внешней среды.

Ключевые слова: дыня, температура, трава, развитие, цветок, устойчив, почва, засуха, влажность, энтомофил.

Abstract. This article provides information on the development of the melon plant and its response to external environmental factors.

Key words: melon, temperature, grass, development, flower, resistant, soil, drought, moisture, entomophilous.

O'simliklarining rivojlanishiga iqlim sharoiti, tuproq unumdorligi, namlik, oziqlanish maydoni va agrotexnika tadbirlari o'z ta'sirini ko'rsatadi.

Qovun issiqqa o'ta talabchandır. Urug'i tuproq xarorati +13...+16°C bo'lganda una boshlaydi. Qovunning rivojlanishi uchun eng maqbul issiqlik +25...+30°C. Xarorat +12...+15°C xaroratga qadar pasayganda o'simlikning o'sishi sekinlashib, gullari to'kiladi, - 1°C da esa o'simlik nobud bo'ladi. Yuqori (+40°C dan yuqori) xarorat o'simliklarning o'sishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi. Poliz ekinlari evoluytsion rivojlanish jarayoni davomida kseromorf, ya'ni qurg'oqchilikka chidamlilik xususiyatlariga ega bo'lib, issiq, quruq va yarim cho'l iqlimi sharoitida yashashga moslashgan. Bu esa urug'ining +60...+70°C gacha bo'lgan xaroratga bardosh berib, keyinchalik 2-3 kun davomida nam tuproqda unish qobiliyatida namoyon bo'ladi. Maysalar xarorat 0°C gacha pasayganda nobud bo'ladi. O'zini tutib olgan o'simliklar +3...+5°C xaroratda zararlanadilar. Ammo o'simliklarning o'suvi va rivoji davrida namlikning ko'pligi singari, xaroratning etarli darajada bo'lmasligi, urug'ning unib chiqishdan onalik gullarining gullashiga qadar bo'lgan davrni haddan ziyod uzaytiradi. O'simlikning xaroratga bo'lgan yuqori talabi gullash va

mevaning shakllanishi davrida kuzatiladi. Mevalarning o'sish va etilish davrida eng qulay xarorat $+30...+35^{\circ}\text{C}$ hisoblanadi. Gullash davridagi yuqori xarorat va havoning namligi gullarga salbiy ta'sir ko'rsatib, ularning bepust bo'lishiga sabab bo'ladi. Qovun o'simligi yuqori qurg'oqchilik va issiqqa chidamlilik xususiyatiga ega. O'rta Osiyo va Kichik Osiyo kenja turi navlari Ovroq navlariga nisbatan issiqqa chidamliroqdir. Shuningdek, yozgi navlar ham, odatda, kechki navlarga nisbatan issiqqa chidamlidir. Navga qarab qovun mevasining etilishi uchun butun o'suv davri mobaynida $+10^{\circ}\text{C}$ dan yuqori samarali xarorat yig'indisi $2800-3200^{\circ}\text{C}$ darajani tashkil qilishi lozim.

Qovun - qisqa kunning yorug'sevor o'simligidir. U to'liq quyosh yorug'iga muhtoj bo'lib, soyani hush ko'rmaydi. Unib chiqish va birinchi chin barg hosil bo'lish davrida yorug'lik kunining 9-10 soatgacha qisqarishi onalik gullarning to'liq yorug'lik kunida o'sgan o'simliklarga nisbatan 7-8 kun kechroq gullashiga sabab bo'ladi.

Qovun tuproq sharoitlarga yuqori moslashuvchanlik xususiyati bilan farqlanib, nam o'tloqi tuproqlarda, sizot suvlari chuqur joylashgan bo'z tuproqlarda, shuningdek, sho'rlangan tuproqlarda etishtirish mumkin. Ammo, qovunning hamma navlari ham turli tuproqlarda o'zlarining nav xususiyatlarini birdek saqlamaydilar.

Havo va tuproq qurg'oqchiligiga nisbiy ravishda chidamli bo'lishiga qaramay, qovun namlikni yoqtiruvchi ekindir. Navlarning suvga bo'lgan turli talabi ildiz tizimining rivojlanish xususiyatini belgilaydi. Suvga bo'lgan eng yuqori extiyoj meva hosil bo'lish davrida kuzatiladi. Tuproq va havoda namlikning ko'pligi ham salbiy ta'sir ko'rsatadi. Yuqori namlik mevaning qand miqdorini kamaytirib, zamburug' kasalliklari rivojlanishiga imkon yaratadi. Turpoqdagi namning etishmasligi oqibatida o'simlik uning eng kam zahiralardan samarali foydalanadi, bu esa navning qurg'oqchilikka chidamliligini belgilaydi. Qovun bir yillik o'tsimon o'simlikdir. Uning butun hayot jarayoni ikki davrdan iborat: unib chiqishdan onalik gullarning gullashiga qadar bo'lgan davr va mevalar tugilishdan ularning fiziologik etilishiga qadar bo'lgan davrdir. U yoyiluvchan tukli poyaga ega bo'lib, har qaysining uzunligi 1 metrdan 4 metrgacha bo'lgan birinchi, ikkinchi va keyingi tartibli palaklarga shohlanadi. O'zbekiston sug'oriladigan maydonlarida etishtiriladigan qovunning jami palaklar yig'indisi 20 metrgacha boradi.

Qovun ildiz tizimining shakllanishi urug'ning er yuzasiga nish urib chiqquniga qadar davom etadi va bosh ildizning uzunligi 9-18 santimetrni tashkil qiladi.



Ildizlarning tuproqda joylashish tabiati ko'p jihatdan navlarga bog'liqdir. Har bir hududning o'z maqbul ekish muddatlarida ekilgan urug'lar 5-12 kun mobaynida unib chiqadi. O'simlikning birinchi chin bargi 8-10 kundan so'ng, ikkinchi barg esa yana 4-5 kundan keyin paydo bo'ladi, so'ngra 5-6 bargli bo'lganda o'simlik shohlanishi boshlanib, mo'ylabchalar va generativ a'zolar paydo bo'ladi. Naviga va o'simlikning rivojiga qarab barglar soni 200-400 tani tashkil etadi. Palaklar soni 35-44 taga boradi. Vegetativ a'zolarning shakllanishi yoppasiga hosil tugish davri boshlanishidan avval yakunlanadi. Bu davrda qovun 0,8-2,5 metrli o'q ildiziga va haydaladigan erning 30-35 sm chuqurligida joylashgan keng shohlangan ildiz tizimiga ega bo'ladi.

Qovun - bir uyli entomofil o'simlik. Uning gullari barg oralarida rivojlanadi. Maysalar hosil bo'lganidan so'ng 25-30 kun o'tgach generativ a'zolari shakllanadi. Ayrim navlar ayri otalik va onalik gullarga ega bo'lsa, boshqalari yaxshi rivojlangan changdon yoki rudementli changdonlarga ega bo'lgan germafrodit (ikki jinsli) gullariga ega. Otalik gullari gultodaga yig'ilgan bo'lib, onalik gullari esa 2-3 tadan yakka-yakka holda barg oralig'ida joylashgan. Meteorologik sharoitlar va agrotexnika gullarning soni va jinslar nisbatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bir o'simlikda 80-300 va 500 tagacha otalik hamda 2-25 va 85 tagacha onalik gullar joylashadi. Otalik gullar maysalar hosil bo'lganidan 25-35 kundan so'ng, onalik gullar esa otalik gullar ochilganidan 5-12 kun o'tib, lekin ertapishar navlarda esa oldinroq ochiladi. Onalik gullar 1 va 2-tartibli yon shohlarida hosil bo'ladi, biroq 2-4 tartibli shohlarda paydo bo'lishi ham mumkin. Palaklarda onalik gullarning joylashish balandligi va gullash muddati navning ertapisharligini belgilaydi. Qovunning ertapishar navlarida dastlabki onalik gullar asosiy palakning 4-11 barg oralig'ida, o'rtapishar navlarda esa 15-18 barg oralig'ida, kechpishar navlarda 20-25 barg oralig'ida joylashgan bo'ladi. Ikkinchi va keyingi tartibli palaklarda hosil bo'ladigan onalik gullarining ochila boshlashi otalik gullarining yoppasiga gullashiga to'g'ri kelib, 10-15 kun davom etadi. Ikkinchi-uchinchi tartibli shoxlar uchidagi gullarning changi etilib ulgurmaydi. Qovun faqatgina chetdan changlanadigan o'simlik bo'lib qolmasdan, balki fakultativ o'z-o'zini changlatuvchan o'simlik ham ekanligi haqida fikrlar mavjud. Changlanish, odatda, kunning birinchi yarmida yuz beradi. Shamolli issiq kunlarda gullar yomon changlanadi. Qovun gullari ertalab soat 5-6 larda ochilib, kunning yarmiga kelib yopiladi. Kun yakunida otalik gulning gultoji so'liydi, onalik gulniki esa ancha uzoq vaqt, odatda, 2-3 kun saqlanadi. Gullarning paydo bo'lishi



o'suv davrining oxiriga qadar davom etadi, lekin ertapishar nav o'simligida 2-4 ta, kechpishar navda esa 1-3 ta tuguncha shakllanib, qolganlari tushib ketadi. Tugunchalarning tushib ketishi generativ a'zolarining bir hil rivojlanmaganligiga bog'liqdir. O'simlik asosiga yaqin joylashgan gullar yaxshiroq tugiladi va changlanadi, chunki mevalar oziq moddalar bilan ko'proq ta'minlanadi.

Qovunning ertapisharligi va kechpisharligi faqatgina gullashning boshlanishi bilan emas, balki mevaning tugilib, to yetilguniga qadar bo'lgan davr bilan belgilanadi. Bu davr O'rta Osiyo sharoitida ertapishar navlarda 30-35 kunni, kechpishar navlarda 65-80 kunni tashkil qiladi. Ayri jinsli gullarga ega bo'lgan navlar o'suv davri qisqaligi bilan farqlanadi. Germafrodit gulli navlarda gullarning shakllanish davri 12-16 kunni tashkil qiladi va bu navlar ancha kechpishar hisoblanadi. Nav xususiyatlariga ko'ra, o'simlikda, odatda, bittadan beshtagacha meva shakllanadi. Ertapishar navlarda mevalarning o'sishi va pishib etilishi ayni bir vaqtning o'zida davom etadi. Kechpishar navlarda mevaning pishishi ularning o'suvi to'xtaganidan so'ng boshlanadi. Naviga qarab maysalar hosil bo'liganidan so'ng 55-130 kun mobaynida pishgan mevani uzish davri boshlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

1. "Ковун етиштириш". Услужий тавсиянома. Ж.Рузимов, А.Таджиев, А.Машарипов, Т.Матқурбанов, Р.Рузметов. УрДУ ноширлик булими, 2017
2. Bostonov.Z Usmonov. I . Andijon qishloq xo'jalik instituti. O'simlikshunoslik kafedrasi. Polizchilik ma'ruza matnlari. - Andijon, 2007 y.
3. Bo'riev X.Ch, Ashurmetov O.A. Poliz ekinlari biologiyasi va ularni yetishtirish texnologiyasi. - Toshkent. - "Mehnat". 2000 y.
4. <https://uz.wikipedia.org>
5. <https://www.agro.uz>

Research Science and
Innovation House

